NAMANGAN VILOYATI TO‘RAQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 25-oktabr | 508-6-85-Q/24 | To‘raqo‘rg‘on tumani hokimligi

“Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o`rinlarining 2025-yil uchun band qilib qo`yish to`g`risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasiga, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning 14, 43-moddalariga, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrda “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-401-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (keyingi o‘rinlarda “Nizom” deb ataladi)ga asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun To‘raqo‘rg‘on tumanida 2025-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. 2025-yilda To‘raqo‘rg‘on tumanidagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 1-ilovaga, To‘raqo‘rg‘on tumanidagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasiga asosan To‘raqo‘rg‘on tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va

mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam soni 1-ilovaga muvofiq xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni 227 nafarni tashkil etadigan 7 foiz miqdorida, shu jumladan:

“nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 3,4 foiz (109 nafar, yuqorida ko‘rsatilgan ish o‘rinlariga tumanda nogironlar ishga joylashish bo‘yicha band etib qo‘yilsin);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 1,1 foiz (35 kishi);

o‘n to‘rt yoshgacha va nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalar uchun 0,8 foiz (27 kishi);

pensiya yoshidagi shaxslar uchun 0,3 foiz (10 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 0,4 foiz (13 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 0,4 foiz (12 kishi);

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan odam savdosi qurbonlari uchun 0,2 foiz (7 kishi)

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun 0,4 foiz (14 kishi) miqdorida ish o‘rinlari zahirasini belgilansin.

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalar uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun – ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironlar uchun – mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosi qurbonlari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari.

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 13-bandiga ko‘ra zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari soni ushbu ish o‘rinlariga qabul qilingan kundan boshlab 3 yil mobaynida hisobga olinishi belgilansin.

5. Ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar:

muhandis, iqtisodchi, hisobchi, hisobchi-taftishchi, kichik tibbiy xodim, shifokor, hamshira, ish yurituvchi, o‘qituvchi, tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, tarozibon, elektrik, haydovchi, tashuvchi, farrosh, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, EHM operatori, yukchi, ishchi, tikuvchi, oshpaz, bog‘bon, qorovul.

6. Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari:

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun

ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 1-ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasin;

yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun muhtojlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilishini va tayyorligini ta’minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar To‘raqo‘rg‘on tuman Kambag‘alikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qilsin;

muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlasin, bu haqda tuman Kambag‘alikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

tashkilot har oyda hisobot oyidan keyingi oyning beshinchi kunigacha To‘raqo‘rg‘on tuman Kambag‘alikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etsin;

tashkilot tomonidan muhtojlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi To‘raqo‘rg‘on tuman Kambag‘alikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

7. To‘raqo‘rg‘on tumani hokimining muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanganligi alohida qayd etilsin.

8. To‘raqo‘rg‘on tuman Kambag‘alikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Sh.Sobirov) mazkur qarorni besh kun muddatda qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019 y) buyrug‘iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, “ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga *(budjet tashkilotlari bundan mustasno)* – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya ajratish” ta’minlasin.

10. Mazkur qaror (ilovalari bilan birga) “Davr” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

11. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab 3 oydan keyin kuchga kiradi.

12. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i K.Soxodillayev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Sh.Kosimov**

To‘raqo‘rg‘on tuman hokimining
2024-yil 25-oktabrdagi
508-6-85-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam soni belgilangan tashkilotlar ro‘yxati

№	Tashkilotlar	Jami ishlovchilar soni	Yaratilishi lozim bo‘lgan ish o‘rinlar soni	Shu jumladan							
				“nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun (3 foiz)	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun	O‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan odam savdosi qurbonlari uchun	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun

				soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi
1	To‘raqo‘rg‘on 1-sonli kasb-hunar maktabi	80	6	3	3,1	1	1,3	1,0	1,3		0,0		0,0		0,0		0,0	1	1,3
2	1-sonli umumta’lim maktabi	84	6	2,5	3,0	1	1,2	1	1,2	1	1,2		0,0		0,0		0,0		0,0
3	4-umumiy o'rta ta'lim maktabi	53	4	2	3,8	1	1,9	1	1,9		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0
4	5-sonli umumta’lim maktabi	45	3	1,5	3,3	0,5	1,1	1	2,2		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0
5	6-umumiy o'rta ta'lim maktabi	63	4	2	3,2	1	1,6		0,0		0,0	1	1,6		0,0		0,0		0,0
6	7-umumiy o'rta ta'lim maktabi	65	5	2	3,1	1	1,5		0,0		0,0		0,0	1	1,5		0,0	1	1,5
7	8-umumiy o'rta ta'lim maktabi	53	4	2,0	3,8	1	1,9		0,0	1	1,9		0,0		0,0		0,0		0,0
8	9-umumiy o'rta ta'lim maktabi	56	4	2	3,6	1	1,8		0,0		0,0		0,0		0,0	1	12,5		0,0
9	11-umumiy o'rta ta'lim maktabi	44	3	1,5	3,4		0,0	0,5	1,1		0,0	1	2,3		0,0		0,0		0,0
10	13-sonli umumta’lim maktabi	75	5	2,5	3,3	0,5	0,7		0,0		0,0	1	1,3		0,0		0,0	1	1,3
11	14-umumiy o'rta ta'lim maktabi	44	3	1,5	3,4	0,5	1,1		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0	1	2,3
12	16-umumiy o'rta ta'lim maktabi	78	5	2,5	3,2	0,5	0,6		0,0		0,0		0,0	1	1,3	1	8,3		0,0
13	17-umumiy o'rta ta'lim maktabi	57	4	2	3,5		0,0	1	1,8		0,0		0,0	1	1,8		0,0		0,0

14	19-umumuy o'rta ta'lim maktabi	49	3	1,5	3,1		0,0		0,0	1	2,0		0,0	0,5	1,0		0,0		0,0
15	20-umumiy o'rta ta'lim maktabi	55	4	2	3,6		0,0	1	1,8		0,0		0,0		0,0		0,0	1	1,8
16	21-umumiy o'rta ta'lim maktabi	57	4	2	3,5	1	1,8	1	1,8		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0
17	22-umumiy o'rta ta'lim maktabi	55	4	2	3,6	1	1,8		0,0		0,0	1	1,8		0,0		0,0		0,0
18	23-umumiy o'rta ta'lim maktabi	56	4	2	3,6	1	1,8		0,0	1	1,8		0,0		0,0		0,0		0,0
19	24-umumiy o'rta ta'lim maktabi	79	6	2	3,0	1	1,3	1	1,3		0,0		0,0	1	1,3		0,0	1	1,3
20	25-umumiy o'rta ta'lim maktabi	69	5	2,5	3,6	0,5	0,7		0,0		0,0	1	1,4		0,0		0,0	1	1,4
21	26-umumiy o'rta ta'lim maktabi	71	5	2,5	3,5	0,5	0,7		0,0	1	1,4		0,0	1	1,4		0,0		0,0
22	27-umumiy o'rta ta'lim maktabi	55	4	2	3,6	1	1,8		0,0		0,0		0,0		0,0	1			0,0
23	28-umumiy o'rta ta'lim maktabi	90	6	3	3,0	1	1,1	1	1,1		0,0		0,0		0,0	1			0,0
24	29-umumiy o'rta ta'lim maktabi	96	7	3	3,1	1	1,0	1	1,0		0,0	1	1,0		0,0		0,0	1	1,0
25	2-umumiy o'rta ta'lim maktabi	72	5	2,5	3,5	0,5	0,7		0,0		0,0	1	1,4		0,0		0,0	1	1,4
26	31-umumiy o'rta ta'lim maktabi	53	4	2	3,8		0,0	1	1,9		0,0		0,0	1	1,9		0,0		0,0
27	32-umumiy o'rta ta'lim maktabi	65	5	2	3,1	1	1,5	1	1,5		0,0		0,0	1	1,5		0,0		0,0
28	33-umumiy o'rta ta'lim maktabi	80	6	2,5	3,1	0,5	0,6		0,0		0,0	1	1,3	1	1,3		0,0	1	1,3
29	34-umumiy o'rta ta'lim maktabi	39	3	1,5	3,8	1	2,6	0,5	1,3		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0
30	35-umumiy o'rta ta'lim maktabi	84	6	2,5	3,0	1	1,2	1	1,2	1	1,2		0,0		0,0	1			0,0

31	36-umumiy o'rta ta'lim maktabi	63	4	2	3,2		0,0	1	1,6		0,0		0,0		0,0		0,0	1	1,6
32	37-umumiy o'rta ta'lim maktabi	63	4	2	3,2	1	1,6	1	1,6		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0
33	38-umumiy o'rta ta'lim maktabi	47	3	2	3,2	0,5	1,1		0,0		0,0	1	2,1		0,0		0,0		0,0
34	39-umumiy o'rta ta'lim maktabi	90	6	3	3,3	1	1,1	1	1,1	1	1,1		0,0		0,0		0,0		0,0
35	40-umumiy o'rta ta'lim maktabi	40	3	1,5	3,8		0,0	0,5	1,3		0,0	1	2,5		0,0		0,0		0,0
36	41-umumiy o'rta ta'lim maktabi	45	3	1,5	3,3	0,5	1,1		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0	1	2,2
37	43-umumiy o'rta ta'lim maktabi	36	3	1,5	4,2		0,0		0,0	0,5	1,4		0,0	1	2,8		0,0		0,0
38	44-umumiy o'rta ta'lim maktabi	61	4	2	3,3	1	1,6		0,0	1	1,6		0,0		0,0		0,0		0,0
39	45-umumiy o'rta ta'lim maktabi	48	3	1,5	3,1	0,5	1,0	1	2,1		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0
40	46-sonli umumta’lim maktabiI	48	3	1,5	3,1	0,5	1,0		0,0		0,0		0,0		0,0	1			0,0
41	47-umumiy o'rta ta'lim maktabi	60	4	2	3,3		0,0	1	1,7		0,0		0,0	1	1,7		0,0		0,0
42	48-umumiy o'rta ta'lim maktabi	47	3	1,5	3,2		0,0	0,5	1,1		0,0		0,0		0,0		0,0	1	2,1
43	49-umumiy o'rta ta'lim maktabi	52	4	2	3,8	1	1,9	1	1,9		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0
44	50-umumiy o'rta ta'lim maktabi	36	3	1,5	4,2		0,0	0,5	1,4		0,0	1	2,8		0,0		0,0		0,0
45	51-umumiy o'rta ta'lim maktabi	48	3	1,5	3,1	0,5	1,0		0,0		0,0	1	2,1		0,0		0,0		0,0
46	53-umumiy o'rta ta'lim maktabi	52	4	2	3,8	1	1,9		0,0	1	1,9		0,0		0,0		0,0		0,0
47	55-umumiy o'rta	60	4	2	3,3	1	1,7		0,0		0,0		0,0		0,0	1			0,0

	ta'lim maktabi																	
48	56-umumiy o'rta ta'lim maktabi	24	2	1	4,2	1	4,2		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0
49	58-umumiy o'rta ta'lim maktabi	58	4	2	3,4		0,0	1	1,7		0,0		0,0	1	1,7		0,0		0,0
50	60-umumiy o'rta ta'lim maktabi	31	2	1	3,2		0,0	1	3,2		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0
51	61-umumiy o'rta ta'lim maktabi	46	3	1,5	3,3	0,5	1,1		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0	1	2,2
52	62-umumiy o'rta ta'lim maktabi	24	2	1	4,2	1	4,2		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0
53	1-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	47	3	1,5	3,2		0,0		0,0	0,5	1,1		0,0	1	2,1		0,0		0,0
54	9-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	24	2	1	4,2		0,0	1	4,2		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0
55	11-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	44	3	1,5	3,4	0,5	1,1	1	2,3		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0
56	12-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	28	2	1	3,6		0,0	1	3,6		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0
57	13-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	29	2	1	3,4	1	3,4		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0
58	18-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	48	3	1,5	3,1		0,0	0,5	1,0		0,0	1	2,1		0,0		0,0		0,0

59	28-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	26	2	1	3,8	1	3,8		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0
Jami		**3247**	**227**	**109**	**3,4**	**35**	**1,1**	**27**	**0,8**	**10**	**0,3**	**13**	**0,4**	**12**	**0,4**	**7**	**0,2**	**14**	**0,4**

To‘raqo‘rg‘on tuman hokimining
2024-yil 25-oktabrdagi
508-6-85-Q/24-son qaroriga
2-ilova

To‘raqo‘rg‘on tumanidagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha komissiya

T A R K I B I

1.	K.Soxodillayev	-	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, **komissiya raisi**
2.	Sh.Sobirov	-	Tuman Kambag‘alikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i, **komissiya raisi o‘rinbosari**
Komissiya a’zolari:			
3.	E.To‘raboyeva	-	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi mudiri
4.	F.Qo‘ziboyev	-	Tuman hokimligi huzuridagi jazoni ijro etish joylardan bo‘shatilgan shaxslarda ijtimoiy ko‘nikmalar hosil qilish markazi rahbari o‘rinbosari
Komissiya kotibi:			
5.	U.Safarov	-	Kambag‘alikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining ishga joylashtirish va ishsizlarni hisobga olish bo‘yicha bosh mutaxassisi

Izoh: *Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ularning o‘rniga yangi tayinlangan shaxslar komissiya a’zosi hisoblanadi.*